

"Farg'onadonmahsulotlari" aksiyadorlik jamiyatini rivojlantirish strategiyasi

«Farg'onadonmahsulotlari» aksiyadorlik jamiyati 1994 yil 28 dekabr kuni Davlat Mulk Qo'mitasining №784k-PO sonli buyrug'iga asosan ta'sis etildi. 1995 yil 26 yanvar kuni jamiyatga 840-sonli mulkiy xuquqni tasdiqlovchi davlat orderi berildi va 1995 yil 28 fevral kuni Farg'ona viloyat Adliya boshqarmasida 385-raqam bilan Davlat ro'yxatidan o'tkazildi. «Farg'onadonmahsulotlari» aksiyadorlik jamiyatining aksiyalar emissiyasi Farg'ona viloyati Qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyatini nazorat qilish bo'limida 2005 yil 1 iyul kuni №M0051-7-raqam bilan ro'yxatga olindi. Emissiya risolasiga ko'ra «Farg'onadonmahsulotlari» ochiq aksiyadorlik jamiyati 635897,7 ming so'mlik Nizom jamg'armasiga ega va u 2 119 659 dona oddiy nomi yozilgan aksiyaga bo'lingan. Xar bir aksiyaning nominal qiymati 300 so'm.

Faoliyat ko'rsatish asosiy yo'nalishlari :

- un va omuxta yem mahsulotlari ishlab chiqarish
- Urug'lik bug'doy ishlab chiqarish.

Hozirgi kunda jamiyat tarkibida Marg'ilon don qabul qilish filiali, Farg'ona don qabul qilish va Yozyovon don qabul qilish shaxobchalari viloyatning Farg'ona, Qo'shtepa, Yozyovon va Toshloq tumanlarida yetishtiriladigan bug'doy donini qabul qiladi. 2004-yil korxonaning 3-tegirmon sexi qayta ta'mirlanib, Shveysariyani «Byuller» texnologiyasi asosida, Rossiya davlatida tayyorlangan zamonaviy texnologik dastgohlari bilan qayta jihozlangan. Natijada ishlab chikarilgan un maxsuloti chet elga eksport kilish mumkin bo'lgan un maxsuloti ishlab chikarildi va Afg'oniston, Qirgiziston davlatlariga eksport kilingan. 2011-yilda Marg'ilon don qabul qilish filiali va Farg'ona don qabul qilish shaxobchalaridagi urug'chilik sexlari Germaniyaning "Petkus" uskunolari bilan qayta jihozlandi. Ushbu urug'lik sexlarida 1 kunda 220 tonna, bir mavsum (2oy)da 13 ming tonna urug'lik bug'doy tozalanib, dorilanib ekish uchun tayyor xolga keltiriladi. Bugungi kunda 3 xil navdagi 15 xil avlod urug'lik bug'doylari ishlab chiqarilmoqda. Tegirmon sutkasiga 250 tonna, bir yilda 76 ming 500 tonna bug'doy donini qayta ishlashga mo'ljallangan. Yillik maxsulot ishlab chiqarish quvvati 57 400 tonnani tashkil qilib, lekin asbob-uskunalarining eskirganligi uchun to'liq quvvatda ishlay olmayotgan edi. Shuning uchun tegirmon sexining 40 foiz asbob uskunalarini yangisiga almashtirish orqali to'liq quvvatda un maxsulotlari ishlab chiqarish rejalashtirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.12.2018 yildagi "O'zbekiston Respublikasining 2019 yilga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4067-sonli qarorining investitsiya dasturiga asosan "Farg'onadonmahsulotlari" AJ ning tegirmon sexini modernizatsiya qilish uchun Rossiyaning OOO "Melservis" firmasi bilan 166 000 AQSh dollarlik va Ukrainaning «Magilov Podolskiy» firmasi bilan 288 040,0 AQSh dollarlik asbob uskuna xamda dastgoxlar sotib olish uchun shartnomalar tuzilgan. 2019 yilning iyul oyida ushbu

firmalar tomonidan uskuna va dastgoxlar yetkazib berildi. Tegirmon sexiga avgust oyida ushbu uskuna va dastgoxlar o'rnatilib, qurilish montaj ishlari to'liq tugatilib, sentyabr oyidan sifatli un maxsulotlari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yildi. 2019 yilgi investitsiya dasturiga asosan «Farg'onadonmaxsulotlari» AJ ning 3- tegirmonida mavjud donni tozalash va yanchish bo'limidagi asbob-uskunalar va dastgoxlar, zamon talabiga javob beruvchi ilg'or texnologik jixozlar bilan qayta jixozlandi. Investitsiya dasturini amalga oshirish uchun "Farg'onadonmaxsulotlari" AJ tomonidan jami 6 667 342.3 ming so'm pul mablag'lari sarflangan bo'lib, shundan qurilish montaj ishlari uchun 1 781 658.0 ming so'm xamda uskuna va dastgoxlar sotib olish uchun 4 885 684.3 ming so'mni tashkil qiladi. Tegirmon sexining 40 foiz asbob uskunalarini yangisiga almashtirish xisobiga hozirgi kunda sutkasiga 180 tonna un maxsulotlari ishlab chiqarilmoqda. Un maxsulotlari 3 xil navda: oliy nav, birinchi nav, ikkinchi navda ishlab chiqarilib, to'liq birja savdolari orqali sotilmoqda. 2021 yil Farg'ona don qabul qilish shaxobchasida zamonaviy yuvinish xonalari xamda oshxona qurilib, foydalanishga topshirildi. Ushbu qurilish uchun jami 841 mln 398.3 ming mablag' sarf etildi. Korxonaga qarashli shaxobchalardan korxonaga elevatoriga bug'doyni o'z vaqtida tashib kelish xamda transport xarajatini qisqartirish maqsadida 2018 yilda 507 mln 177.2 ming so'mga yuklovchi mashina (Pogruzchik frontalniy Lonking LG 833N), 2020 yilda 242 mln 410.5 ming so'mga yarim tirkama (Polupritsep zernovoz), 231 mln 750 ming so'mga yarim tirkama (Polupritsep samosval'nyy zernovoz), 225 mln 570 ming so'mga tirkama (Pritsep samosval'nyy), 355 mln 154.3 ming so'mga yuklovchi mashina (Frontal'nyy pogruzchik Lonking LG 833N), 2021 yil 525 mln 948.3 ming so'mga Kamaz 6460, 656 mln 991.5 ming so'mga Kamaz 6520, 466 mln 970.5 ming so'mga Kamaz 5460 zamonaviy yuk tashish mashinalari lizing asosida sotib olindi. Korxonaga tomonidan 2018 yilda 133 mln 60.5 ming so'mga avtomobil Lasetti-2 ATCDX, 92 mln 536.5 ming so'mga avtomobil NEXIA-3, 2021 yilda 320 mln 869.6 ming so'mga avtomobil MALIBU-2, 152 mln 939.1 ming so'mga Wolks Wagen Caddy (Cargo) xizmat avtomashinalari sotib olindi. Korxonaning ma'muriy binosi 1939 yil qurilgan bulib, shu kunga qadar foydalanib kelingan ushbu bino ma'nan eskirib qolgan edi. 2021-2022 yilda 9 mlrd 947.2 mln so'mga yangi zamonaviy ma'muriy bino belgilangan standartlar asosida qisqa muddatda qurilib, davlatimiz mustaqilligining 31 yilligi arafasida foydalanishga topshirildi.

2022 yil 1 noyabrdan boshlab yangicha dizaynli qopda "Farg'ona gavxari" nomli un maxsulotlari ishlab chiqarilib, birja savdolariga orqali sotilishi yo'lga qo'yildi. Hozirgi kunda Farg'ona viloyati tadbirkorlari, shuningdek Andijon viloyati tadbirkorlari xam ushbu yangi qopdagi un maxsulotlarini sotib olishmoqda. Joriy yilda Qozog'istondan bug'doy import qilinib, sifatli xamda raqobatbardosh un maxsulotlari ishlab chiqarishni yo'lga quyish xamda Afg'onistonga eksport qilish rejalashtirilgan.

Jamiyatda mahsulot ishlab chiqarish Davlat standartlarga va boshka texnik - normativ xujjatlarga muvofik amalga oshiriladi. Barcha ishlab chikariladigan mahsulot uchun aloxida standart, texnik shartlar mavjud. Jamiyat tomonidan sifat masalasiga juda

katta e'tibor berilib, xar kuni ishlab chiqarish laboratoriyasi tomonidan mahsulot sifati tahlildan o'tkaziladi. Jamiyat tomonidan 2008 yilda O'zDSt ISO:9001 sifat tizimi joriy etildi. 2018 yil 29 may kuni O'zDSt ISO 9001:2015 muvofiqlik sertifikatini olindi. Hozirda ushbu sifat tizimi bo'yicha ishlar olib borilmoqda. «Farg'onadonmahsulotlari» aksiyadorlik jamiyati tomonidan ishlab chiqariladigan barcha mahsulotlarga Davlat Standart Qo'mitasi tomonidan DAVLAT SIFAT SERTIFIKATI berilgan.

Un va un mahsulotlari xavfsizligi butun dunyo mamlakatlari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir. BMT ham bugun un va un mahsulotlari mahsulotlarini yetishtirish va ularni taqsimlash bo'yicha yondashuvni mutlaqo o'zgartirish vaqti kelganini ta'kidlayapti. Zero, ideal holatda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari barchani un va un mahsulotlari bilan to'liq ta'minlash va odamlar uchun risoladagidek daromad manbaini yaratib berishga qodir. Boz ustiga, bunday holatda inson manfaatlari yo'lida ham qishloq xo'jaligi rivojlanadi, ham atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlar ijrosi ta'minlanadi. Mamlakatimizda un va un mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy holatini barqaror rivojlantirish, fuqarolarning sog'lig'i, turmush sifatini yaxshilash, milliy xavfsizligi va mamlakat mustaqiligini barqaror saqlashning asosiy yo'nalishi sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, butun dunyoda davom etayotgan koronavirus pandemiyasi sharoitida bu sohani rivojlantirish har bir rahbar oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifa hisoblanmoqda. «Farg'onadonmahsulotlari» aksiyadorlik jamiyati xam tadbirkorlikni rivojlantirishga keng yul berilayotganidan foydalanib, o'ziga tegishli un ishlab chiqarish zavodida axoli va korxonalariga sifatli un mahsulotlari ishlab chiqarib, ta'minlab kelmokda. Xususan jamiyat 2021 yilda 200.3 mlrd.so'mlik mahsulot sotishga erishgan. Jamiyat o'z faoliyatini rivojlantirish va kengaytirish maqsadida tovar xom ashyo birjasidan yetishtirilgan bugdoy mahsulotlarini sotib olishni rejalashtirmoqda.

Korxonaning istiqbolli rivojlanishi uchun 2023 yilda amalga oshiriladigan ishlar quyidagilardan iborat: rejaga kiritilmagan qurilish ishlarini amalga oshirmaslik; joriy tamirlash xarajatlarini keskin kamaytish; Boshqaruv apparatini saqlash xarajatlarini nazorat qilish xizmat safari, transport, telefon, kantselyariya va boshqa xarajatlar avtomobillarni benzindan gazga o'tkazish va kunlik xarajatlar limitini belgilash xisobiga); jamiyatga qarashli shaxobchalarga sarflanadigan xarajatlar jumladan: ish xaki xarajatlari, elektr energiya, joriy tamirlash xamda boshqa xarajatlarni qisqartirish; jamiyatiga qarashli past rentabellikda ishlayotgan non va makaron ishlab chiqarish MChJ larini sotish choralari kurish; foydalanilmayotgan ob'ektlar ya'ni Marg'ilon "Vaxtel" non sexi binosi, Quvasoy arsif shiyponi, Toshloq issiq non binosi, jamiyat xududida joylashgan mashinalarga xizmat kursatish bino (Tex)larni qayta baxolab auktsion orqali sotish; Aylanma mablag'lardan homiylik va xayriya maqsadlarida foydalanmaslik, jarima va penyalari hisoblanishiga yo'l qo'ymaslik, hisoblanganlarini aybdorlardan undirish mexanizmini joriy etish; amaldagi shtatlar jadvalidagi barcha ishchi-xodimlarni ish faoliyatiga individual yondashgan holda ularning amaldagi vazifalarini o'rganib chiqib, optimallashtirish.